

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE SEMANTIC SCOPE OF ARABIC MASDARS BORROWED INTO THE UZBEK LANGUAGE****Zilola Q. Rixsikhojayeva***Trainee teacher**Department of Arabic Language Translation Theory and Practice**Uzbekistan State University of World Languages Uzbekistan*Adhamovazilola42@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Masdars, borrowed lexicon, semantic analysis, lexical-semantic group, terminological units, uzbek language.

Abstract: This article analyzes the semantic fields of Arabic infinitives adapted into the Uzbek language, presenting their classification with examples. The article highlights the lexical and semantic features of these infinitives.

Received: 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26**O‘ZBEK TILIGA O‘ZLASHGAN ARABIY MASDARLARNING MA’NO DOIRASI****Zilola Q. Rixsixo‘jayeva***O‘qituvchi-stajyor**Arab tili tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida**O‘zbekiston davlat jahon tillar universiteti**Toshkent, O‘zbekiston*Adhamovazilola42@gmail.com*Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: Masdar, o‘zlashma leksika, semantik tahlil, leksik-semantik guruh, terminologik birliklar, o‘zbek tili.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tiliga o‘zlashgan arabiy masdarlarning ma’no doiralari tahlil qilinib, ularning tasnifi va misollar orqali ifodalanishi ko‘rsatildi. Tadqiqot masdarlarning leksik va semantik xususiyatlarini yoritadi.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ ДИАПАЗОН АРАБСКИХ МАСДАРОВ, ЗАИМСТВОВАННЫХ В УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Зилола К. Риксходжаева

учитель-стажёр

Кафедра теории и практики перевода арабского языка

Узбекский государственный университет мировых языков Узбекистан

Adhamovazilola42@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Масдары, заимствованная лексика, семантический анализ, лексико-семантическая группа, терминологические единицы, узбекский язык.	Аннотация: анализируются семантические области арабских инфинитивов, адаптированных в узбекский язык, с представлением их классификации и примеров. Статья освещает лексические и семантические особенности этих инфинитивов.
--	--

Kirish. O‘zbek tili lug‘at tarkibida arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar muhim o‘rin egallaydi. Xususan, arabiy masdarlar tilimizda turli semantik ma‘nolarni ifodalab, leksik tizimning boyishiga xizmat qiladi. Ushbu maqolada o‘zbek tiliga o‘zlashgan arabiy masdarlarning ma‘no doirasi va ularning qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Arabcha o‘zlashmalar o‘zbek tilining leksik boyligini shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, arab tili bilan til aloqalari Islom dini qabul qilinganidan so‘ng yanada faollashgan va natijada yuzlab so‘zlar turli bosqichlarda o‘zbek tiliga kirib kelgan (Zikriyayeva, 2025, p. 216). Filologiya fanlari nomzodi Fotih Abdullayev o‘zining o‘zbek tiliga o‘zlashgan arabizmga bag‘ishlangan tadqiqotlarida o‘zbek tilida 55% foiz arab so‘zlari borligini ta‘kidlagan (Saidova, 2022, p. 341).

Ushbu o‘zlashmalarning aksariyati ot so‘z turkumiga tegishli bo‘lib, bilamizki masdarlarning barchasi ushbu turkumga oiddir. Masdarlarning semantik imkoniyatlarini tahlil qilish, avvalo, ularni ma‘no guruhlarida asosida tasniflashni talab etadi. Chunki ayrim masdarlar diniy va tasavvufiy ma‘nolarni ifodalasa, boshqalari ijtimoiy-siyosiy sohada, yoki ilm-fan va ta‘lim tizimida faol ishlatiladi. Shuningdek, iqtisodiy, huquqiy va madaniy-ma‘naviy qatlamlarda ham arabiy masdarlarga keng ehtiyoj seziladi.

Shu bois, ushbu bo‘limda o‘zbek tilidagi arabiy masdarlarning ma‘no doirasi turkumlar bo‘yicha guruhlanib, ular semantik imkoniyatlari va nutqiy qo‘llanish xususiyatlari misollar asosida tahlil qilinadi.

1. Ilm-fanga, ta‘limga va maorifa oid atamalar: bu turdagi atamalar umumiy bo‘lib, hayotning barcha sohalarida qo‘llaniladi. Ilm-fan, ta‘lim so‘zlari ham aslida arab tilida o‘zlashgan masdar hisoblanadi (Muxtorova, 2024, p. 106). Bunday so‘zlar talaygina bo‘lib, ular quyidagilar: aql, qobilyat, qiroat, qayd, fikr, fahm, falsafa, faoliyat, hikmat, hisob, bahs, tafakkur, dars, nutq,

mutolaa, mubohasa, mantiq, ma'rifat, munozara. Quyida ba'zi ilmiy atamalarni izohlab o'tamiz. Masalan:

عِلْمٌ - ilm, bilim, fan, nazariya. 1. O'qish-o'rganish va tadqiqot qilish bilan egallangan bilim, ko'nikma (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 195).

“Lekin katta shoir bo'lish uchun ilm kerakligini, shuning uchun ko'p vaqtni mutolaaga berish zarurligini so'zladi” (Oybek, 1944, p. 175).

مَعْرِفَةٌ - ma'rifat, bilim, fan; ma'lumot; tanishish. 1. Ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g'oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 567).

“Sizning ma'rifat daryongizdan bahramand bo'lmoq qadar ulug' saodatni tasvvur etmoq imkonsizdir...” (Oybek, 1944, p. 32).

مُطَالَعَةٌ - diqqat bilan o'qish; o'rganish (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p.655).

“Kechani shu yerdagi xonalardan birida mutolaa va yozish bilan yolg'iz kechirdi” (Oybek, 1944, p.398).

تَفَكُّرٌ – fikr yuritish, o'ylash, fikrlash (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 13).

“Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi” (Oybek, 1944, p. 33).

مُبَاحَثَةٌ – bahslashish, bahs, munozara (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 624).

“Shuning uchun bu to'g'rida bo'lgan mubohasalarning asli sababiga, to'g'risi, fahmim yetmay qoldi” (Oybek, 1944, p. 220).

نُطْقٌ – so'zlash, nutq; gapirish qobiliyati (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 3, p. 67).

“Ularning nutqida, haqiqat bilan baravar mubolag'a poyma-poy ayblashlar ham sezilib turardi” (Oybek, 1944, p. 407).

2. Huquqiy sohaga oid atamalar: huquq, murojaat, mulk, muhokama, nizo, jinoyat, shikoyat, adolat, qaror, hukumat, ushr, vaqf, siyosat, sulh, nikoh, da'vo, davlat, arz, ittifoq. Quyida ba'zi ilmiy atamalarni izohlab o'tamiz. Masalan:

حُقُوقٌ - “haq (q)” so'ziing ko'pl. 1) huq. Davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo'riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o'zaro munosabatlarini va b. ni tartibga soladigan qonun-qoidalar, me'yorlar majmui.

“Bundan tashqari, ular fuqaroga har xil jabr-sitam ko'rsatib, uning haq-huquqlarini poymol etadilar” (Oybek, 1944, p. 71).

عَدَالَةٌ – adolat, odillik. 1. Odilona ish tutish, odillik (Explanatory Dictionary...,2006, Vol. 1, p. 41).

“Yurtda adolatli davlat, odil va ilmparvar hukmdor ko'rmoq orzusida bo'lgan Navoiy Husayn Boyqarodan ko'p narsa umid qilar edi” (Oybek, 1944, p. 76).

شِكَايَةٌ – arz qilish, norozilik, ayblash. 1. Norozilik, nolish soʻzi.

“U shu ondayoq Alisherdan shikoyat qila boshlagan” (Oybek, 1944, p. 390).

دَعْوَى – arz, shikoyat, iddao (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 1, p. 579).

“U oʻz haqqini daʼvo qildi!” (Oybek, 1944, p. 97).

نزاع – Oʻzaro kelishmovchilik yoki qarama-qarshilik, dushmanlik (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 3, p. 37).

“Endi podshoh bilan shoir orasidagi nizoning asl maʼnosiga kelsak, harholda, siyosiy bir tarzda boʻlishi shubhasiz”

عَرْض - dardhasrat, shikoyat tarzidagi (asosan ogʻzaki) murojaat (1-tom, p. 95).

“Mabodo oʻzimiz sindira olmasak, podshohga arz etmogʻimiz, uni aqlga, insofga daʼvat qilmogʻimiz kerak”

3. Tibbiyotga oid atamalar: tib, vujud, falaj, hazm, tahlil, shifo, illat, sihat. Quyida baʼzi ilmiy atamalarni izohlab oʻtamiz. Masalan:

شِفَاء - shifo, davolanish, sogʻayish; doridarmon. 1. Kasallikdan xalos boʻlish; sogʻayish, tuzalish (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 582).

“Navoiy mahkamalardan, vazifadorlardan xalq oʻz yaralari uchun zarra qadar shifo kutmaganini, zulm xanjari boʻgʻziga qadalganini soʻzladi” (Oybek 1944, p. 416).

فُلْج - falaj, shol, paralich. Asab sistemasining ishdan chiqishi natijasida tana aʼzolaridan birortasining tamoman harakatsiz boʻlib qolishidan iborat kasallik; shol (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 321).

عِلَّة - kasallik, dard. 1. Tanadagi dard, kasallik, xastalik (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 194).

“Hamma illat shunda, – dedi Zaynid- din qoʻlini tizzasiga urib” (Oybek, 1944, p. 319).

صِحَّة – tan sogʻligi, sogʻlik, sogʻlomlik (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 3, p. 533).

“Shoirning sihati, safar mashaq- qati toʻgʻrisida dildorlik qildi” (Oybek, 1944, p. 431).

طِب – tibbiyot (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 82).

“Zayniddinni uning bobosi — mashhur tib olimining sagʻanasi yoniga koʻmdilar” (Oybek, 1944, p. 473).

هَضْم – taomning oshqozonda singishi (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 5, p. 480).

“Bu sohada koʻpgina jiddiy asarlarni oʻqib, hazm etgan edi” (Oybek, 1944, p. 419).

4. Sanʼat va adabiyotga oid atamalar: mahorat, madh, mutoyiba, maqom, mubolagʻa, ijod, isteʼdod, ilhom, insho, ziyo, raqs, hajv, tashbih, kinoya, fasohat, tasvir, tashabbus, hikoya, latofat, rasm, bayon. Quyida baʼzi ilmiy atamalarni izohlab oʻtamiz. Masalan:

مَهَارَةٌ - mahorat, mohirlik, ustalik, epchillik. Biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada oʻrtirilgan ustalik, sanʼat; mohirlik (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 575).

“U endi darslari bilan juda siyrak mashg‘ul bo‘lib, xattotlik san‘atida mahoratini oshirishga tirishar, musiqiy bilan ko‘proq shug‘ullanar edi” (Oybek, 1944, p.136).

إِجَادٌ - ijod, yaratish, kashf etish; vujudga keltirish. 1. Badiiy, ilmiy, san‘atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchanlik faoliyati (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 176).

“Hirotda ba‘zi imoratlarning g‘oyat nafis naqshlari uning ijodi edi” (Oybek, 1944, p. 157).

هَجْوٌ - birovdan kulish; satira. Ayrim shaxs yoki ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni kulgi ostiga olib, masxaralab aytilgan gap (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 5, p. 477).

“Yangi yozgan hajvlari, g‘azallarini o‘qib, falonchi shoir bu xususda bunday degan edi, men bu shaklda ta‘bir berib, mislsiz xo‘b narsani yaratdim, deb o‘z-o‘zini maqtashga tushdi” (Oybek, 1944, p. 380).

إِلْهَامٌ – ishontirish, ruhlantirish (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 200).

“Sovuq, mash‘um shamollar esmasdan ilgari, ilhom gulzoridan ko‘proq guldastalar terishga tirishadi” (Oybek, 1944, p. 458).

كِنَايَةٌ – masxaralash, kulish uchun asl ma‘nosidan boshqa, majoziy ma‘noda aytilgan so‘z, gap (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 370).

“To‘g‘onbek dakkam-dukkam mo‘ylabini yo‘g‘on barmoqlari bilan chimtib, kinoyali kulib qo‘ydi” (Oybek, 1944, p. 13).

مَدْحٌ – maqtov (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 521).

“Sultonmurod boyvachcha bilan beparvo ko‘rishar ekan, ayni zamonda qizarib, Zayniddin-ning maqtovlarini hazilga aylantirishga tirishdi” (Oybek, 1944, p. 142).

5. Dinga oid atamalar: vaqf, qazo, qadar, fitna, fisq, fano, halol, harom, hasad, ushr, udda, zakot, zikr, taqdir, tahorat, tavba, duo, da‘vat, ehson, e‘tiqod, mazhab, islom. Quyida ba‘zi ilmiy atamalarni izohlab o‘tamiz. Masalan:

زَكَاةٌ - zakot, moli nisobga yetgan musulmon kishi, shu molidan chiqarishi lozim bo‘lgan moddiy ibodat turi. Islomning 4-rukni hisoblanadi (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 125).

“Bir kun, zakot masalasida Majididdin bilan kuchli to‘qnashuvdan keyin Navoiy Husayn Boyqaroga murojaat etdi” (Oybek, 1944, p. 182).

دُعَاءٌ – duo, iltijo, chaqirish, da‘vat. 1. Xudoga yolvorib, unga iltijo qilib, o‘z yoki boshqalar uchun yaxshi, ezgu tilak tilash (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 1, p. 665).

“Majididdin parvonachi qayta-qayta qulluq qilib, podshohning haqiga duo o‘qidi” (Oybek, 1944, p. 182).

إِحْسَانٌ - ehson, yaxshilik, samimiylik, muruvvat; biror narsani hadya qilish; xayr-sadaqa. 1. Xayrli, savobli ish, kori xayr; ezgulik (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 69).

“Daromadlardan xayri ehson uchun qilingan xarajatlarni tekshiradi” (Oybek, 1944, p. 387).

حَسَد – rashk; ko’rolmaslik, qizg’anish (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 5, p. 513).

“Hirotda unga hasad qilg‘uvchilar bor” (Oybek, 1944, p. 414).

عُشْر – o‘ndan bir. Dehqonchilikdan keladigan daromadning o‘ndan biri hisobidan olinadigan soliq (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 312).

“- Mirzo yigit, - dedi u qo‘li bilan peshonasidan terni sidirib, - yaqinda biz «ushr»ni batamom top- shirib, ko‘nglimizni bu anduhdin forig‘ qilgan edik”

ذِكْر – eslash, yodlash; xotira (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 149).

“Keyin qalin xalq davra qurib, naqshbandiy usuliga muvofiq, zikr tushdi” (Oybek 1944, p. 411).

6, Madaniyatga oid atamalar: mehnat, maishat, imorat, dabdaba, tantana, rasm, xalq, an‘ana, talab, ehtiyoj, taqlid, qavm. Quyida ba‘zi ilmiy atamalarni izohlab o‘tamiz. Masalan:

عَنْعَنَة - nasldan naslga o‘tuvchi qoida. Hayotda qaror topgan yoki topayotganudum, urf-odat va boshqa amallar (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 1, p. 89).

“Uchinchi kun Majididdin Hirotda bo‘lgan shahzodalar, beklar, baland martabali mansabdorlar ham o‘zga e‘tiborli kishilar bilan, odat va an‘ana bo‘yicha, podshohni kutib olish uchun shahardan chiqdi” (Oybek, 1944, p. 402).

تَقْلِيد - taqlid, ergashish, biror shaxsga turli xil fe‘l yoki hatti harakatga ergashish, o‘xshashlikka harakat qilish (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 13).

“Ammo, taqlidga qancha urinmasin, zamon va muhit bu bobda ham katta o‘zgarishlar kiritgan edi” (Oybek, 1944, p. 119).

مَعِيشَة – maishat, hayot, turmush. 1. Kundalik tirikchilik, yashash (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 526).

“Yurtda ilm, she‘r va o‘zga san‘at odamlarining maishatini yaxshilash uchun ularga hamisha homiylik qilish kerakligini ayniqsa ta‘kidladi” (Oybek, 1944, p. 128).

طَنْطَنَة – jaranglash, jarang; shovqin. 1. Muhim voqea hodisa va sh.k. munosabati bilan o‘tkaziladigan, o‘yin-kulgi, xursandchilik ruhida davom etadigan yig‘in, marosim (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 3, p. 667).

“Ulug‘ shoir va shayxni katta tantana bilan mavlono Sa‘diddin Koshg‘ariyning mozori yoniga dafn etdilar” (Oybek, 1944, p. 411).

خُلُق – yaratish, ijod qilish; yaratilgan jonzot va odamlar. 1. Odamlar (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 381).

“O‘limning yettinchi kuni Navoiy ulug‘ do‘stining xotirasi uchun minglab xalqqa osh berdi” (Oybek, 1944, p. 411).

قَوْم – xalq, millat; kishilar to’dasi. 1. Bir avloddan tarqalgan, o’zaro qarindoshlik munosabatlari bilan bog’langan kishilar birlashmasi (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 5, p. 291).

“Tutashti base qavm ila suhbatim” (Oybek, 1944, p. 412).

7. Turizmga oid atamalar: safar, sayr, sayohat, vaqt, xizmat, hijrat, ziyorat, tijorat, tashrif. Quyida ba’zi ilmiy atamalarni izohlab o’tamiz. Masalan:

سَفَرٌ - sayohat, sayr. 1. Xizmat yo’li bilan yoki sayohat qilish, uchrashish maqsadida biror yerga borish; yo’l (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 3, p. 460).

"Uzoq safardan qaytgan shoirning holini, kayfini so‘radi" (Oybek, 1944, p. 285).

تِجَارَةٌ - savdo-sotiq, savdo ishlari (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 82).

“Tijorat ahli bilan aloqada bo‘lishning foydalarini yaqqol ko‘rdi” (Oybek, 1944, p. 51).

هِجْرَةٌ - ko‘chish, ko‘chirish; chet mamlakatga ko‘chib ketish (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 5, p. 526).

“Ilm oftobi Samarqanddan Hirot samosiga hijrat etgan, Samarqandning eng peshqadam olimlarini Hirotning har madrasasida o‘nlab topmoq mumkin...” (Oybek, 1944, p. 23).

خِدْمَةٌ – xizmat; ish, lavozim; xizmat ko‘rsatish. 1. Biror ish yoki mehnat bilan shug‘ullanish; biror ishni bajarish; ish, mehnat (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 395).

“Qalbaki tabassum bilan: «Zoti oliylarining har nechuk xizmatlariga tayyormen», dedi u” (Oybek, 1944, p. 415).

تَشْرِيفٌ – hurmat, ehtirom; ulug‘lash, sharaflash. Biror yerga, elga, xonadonga yoki biror kimsa huzuriga qisqa muddatga borish, kelish (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 24).

“Muzaffar Mirzo ularni shirin so‘zlar, mehribonchiliklar bilan to‘rga — kimxob to‘shakka o‘tkazib, o‘zi To‘g‘onbek oldida tiz cho‘kdi ham ulaming tashrifi uchun cheksiz quvon-ganini bildirdi” (Oybek, 1944, p. 383).

زِيَارَةٌ – tashrif, tabarruk joylarga safar qilish. 1. Din. Muqaddas joylarga, mozor va qabristonlarga borib sig‘inish (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 2, p. 148).

“Sizni ziyorat qilmoq uning uchun ulug‘ baxtdir” (Oybek, 1944, p. 158).

8. His-tuyg‘uga oid so‘zlar: vafo, shavq, zavq, fido, g‘urur, g‘azab, nafrat, alam, qahr, hasrat, hijron, nadomat, xiyonat, uqubat, mayl, ehtiros, oqibat. Quyida ba’zi ilmiy atamalarni izohlab o’tamiz. Masalan:

عُرْوَةٌ - manmanlik, mag‘rurlik. 1. Insonning o‘z qadr-qimmatini bilish, uni hurmat qilish hissi (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 5, p. 461).

“Boyqaroning zafar g‘ururi bilan ruhlangan yigitlari dushmanni yanchib, dahshatli suron bilan uni ta‘qib etdilar” (Oybek, 1944, p. 81).

خِيَانَةٌ - xoinlik, munofiqlik. Ahdni buzish, birovning ishonchini yoki ishonib topshirgan narsasini suiiste'mol qilish (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 394).

“U Muzaffar Mir zo ismidan har xiyonatga bosh urib, har jinoyatni oqlaydi”.

وَفَاءٌ - sadoqat; va'dani bajarish. 1. Yorga, do'stga, yaqin kishilarga sadoqat (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 1, p. 445).

“Navoiy ishqda vafo va sadoqat, tozalik to'g'risida chiroyli, ma'nodor so'zlar aytdi” (Oybek, 1944, p. 269).

شَوْقٌ – histuyg'u, ehtiros; kuchli orzu, havas, istak. 1. Kuchli havas, intilish; qiziqish, ishtiyoq (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 532).

“Qilichboz, mard yigitlar haqida shavq bilan gapirib turarkan, bir necha mulozimlar kelib qolishdi” (Oybek, 1944, p. 176).

فِدَاءٌ – qutulish, qutultirish; tovon, evaz. Biror kimsa, narsa yoki g'oya uchun o'zini bag'ishlash; baxshida, qurbon qilish (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 4, p. 342).

“Haqiqat yo'liga jonimizni shavq-zavq bilan fido qilmoqqa hamisha tayyormiz!” (Oybek, 1944, p. 336).

غَضَبٌ – qahr, jahl, zarda; norozilik. Kuchli darajada achchiqlanish hissi; qahr, jahl (Explanatory Dictionary..., 2006, Vol. 5, p. 426).

“Xonaqohda doimiy yashaydigan olimlar, shoirlar va o'zga san'at ahllari ham bu voqeadan g'azabga kelishdi” (Oybek, 1944, p. 337).

Arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan masdarlarni ko'plab sohalarga tegishli ekanligi va ularni ona tilimizda keng qamrovli ishlatilishi ma'lum bo'ldi.

Endi, yana ham biroz bu masdarlarga e'tibor bersak, ularning qanday semaga ega ediku, o'zbek tiliga kirganda qanday semaga o'zgardi yoki shunday saqlanib qoldimi, kabi savollarga javob berishimiz mumkin bo'ladi.

Arab tilidagi masdarlar o'zbek tiliga o'tish jarayonida bir qancha semantik o'zgarishlar kuzatiladi. Umuman olganda, o'zlashma so'zlar semantik tuzilishidagi o'zgarishlar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. O'z ma'nosini saqlab qolgan o'zlashmalar;
2. So'z ma'nolarining kengayishi;
3. So'z ma'nolarining torayishi;
4. O'zlashmalarning umuman yangi ma'no kasb qilishi, ya'ni so'z ma'nolarining o'zgarishi va zidlashuvi (Saidova, 2022, p. 341).

Birma-bir bularga to'xtaladigan bo'lsak, bulardan o'z ma'nosini saqlab qolgan o'zlashmarning dominantlik qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Bulardan ba'zilar sifatida sidq, عهد, صدق, اهد, رذالة, razolat, امانة, omonat, ظلم, zulm, شفاء, shifo, شك, shak, مدافعة, mudofaa, مسؤولية, mas'uliyat

mas'uliyat, غضب g'azab, غيبة g'iybat, صدق sidq, سكونة sukunat, خدمة xizmat, نجاة najot, فتنة fitna, قصاص qasos, نية نيّة, ehtirom احترام, mashvarat مشورة, shikoyat شكاية kabi so'zlarni misol keltirishimiz mumkin.

Misol: "G'oyat go'zal fikr, g'oyat go'zal niyat, - ta'kidladi Xo'ja Afzal."

"Arslonqul ehtirom bilan uning qo'lini qisdi."

Mushohada (مشاهدة), intizor (انتظار) kabi o'zlashmalarda ma'no kengayishi kuzatiladi:

"Baddiuzzamon Zulnun Arg'unbek bilan tepaga chiqib, dushman tomonni mushohada qildi" (Oybek, 1944, p. 434).

Arab tilida mushohada so'zi kuzatish, ko'rish ma'nosida kelsa, o'zbek tilida kuzatish hamda fikr yuritish ma'nolarida ishlatiladi.

"Hammaning ko'zi Mashhad yo'liga intizor edi" (Oybek, 1944, p. 452).

Arab tilida bu so'z kutish ma'nosida kelsa, o'zbek tilida esa, ma'no yanada kengayib orziqib, sog'inib kutish ma'nosida keladi.

Jazo (جزاء), harom (حرام) kabi so'zlarda ma'no torayishi kuzatiladi.

Misol: "Qanday jazo yoki jarimani ma'qul topursiz?" (Oybek, 1944, p. 417).

O'zbek tilida jazo so'zi ayb yoki jinoyati uchun ko'riladigan chora ma'nosida ishlatiladi. Ammo arab tilida bu so'z ham jazo ham mukofot ma'nosida keladi.

O'zbek tilida harom degan so'zning bir qancha ma'nolari bor. Iste'mol qilish ta'qiqlangan narsa, shar'iat bo'yicha man etilgan ish, g'usl qilmagan, foydalanish mumkin bo'lgan narsalarga nisbatan ishlatiladi. Arab tilida esa bunday ma'nolarni anglatadi. Ma'nolariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: mumkin emas, qilmasliging kerak, harom qilingan ish, ovqat, muqaddas oylardan biri, muqaddas uy, shariatsiz dunyoga kelgan farzand.

Misol: "Bunday qabih, harom uyalarga bolalarni, qizlarni keltirib, ularni fahsh, fisq-fujurning sassiq tutuni bilan bo'g'adilar" (Oybek, 1944, p. 307).

Ma'nosi o'zgargan so'zlarga quyidagilarni keltirishimiz mumkin: yaqin (يقين), aysh (عيش).

Misol: "Qo'lini ko'ksiga qo'yib, shoirga yaqin keldi." (Oybek, 1944, p. 34).

O'zbek tilida yaqin so'zi umumiy masofa, vaqt jihatdan oz fursat qolganligini ifodalaydi. Arab tilida esa, qat'iy ishonch ma'nosini bildiradi.

"Ichdik, aysh-ishratga botdik" (Oybek, 1944, p. 381). Aysh so'zi arab tilida yashamoq, hayot kechirmoq ma'nosida keladi. Lekin o'zbek tilida huzur-halovat, kayf-safo ma'nolarida ishlatiladi.

Shuningdek, oz bo'lsada yangi ma'no kasb etgan o'zlashmalar ham uchrab turadi.

Misol: "Uylanmoq uchun balog'atga yetmoq keark, toj kiymoq uchun balog'at shart emas" (Oybek, 1944, p. 382).

Balog'at so'zi o'zbek tilida voyaga yetish, ulg'ayish ma'nosida kelsa, arab tilida esa gapga chechan bo'lish ma'nosida qo'llaniladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tiliga o'zlashgan arabiy masdarlar tilimiz leksik tizimining muhim qatlamini tashkil etadi va so'z boyligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Ular turli semantik guruhlarda qo'llanib, har xil ma'nolarni ifodalash orqali o'zbek tilining ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi va nutqning rang-barangligini ta'minlaydi. Shu bois, arabiy masdarlarning o'zbek tilidagi ma'no doirasini chuqur o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki leksik-semantik tahlil va terminologik tadqiqotlar uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oybek. (2004). Navoi. Navoiy. - Tashkent: Sharq Publishing and Printing Joint-Stock Company. - 496 p. (in Uzbek)
2. Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Tashkent: “National Encyclopedia of Uzbekistan” State Scientific Publishing House, 2006. – Volume 1. – 680 p. (in Uzbek)
3. Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Tashkent: “National Encyclopedia of Uzbekistan” State Scientific Publishing House, 2006. – Volume 2. – 672 p. (in Uzbek)
4. Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Tashkent: “National Encyclopedia of Uzbekistan” State Scientific Publishing House, 2006. – Volume 3. – 688 p. (in Uzbek)
5. Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Tashkent: “National Encyclopedia of Uzbekistan” State Scientific Publishing House, 2006. – Volume 4. – 704 p. (in Uzbek)
6. Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Tashkent: “National Encyclopedia of Uzbekistan” State Scientific Publishing House, 2006. – Volume 5. – 592 p. (in Uzbek)
7. Saidova, S. (2022). Lexical-semantic features of terms borrowed from Arabic. Arab tilidan o'zlashgan atamalarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlari. In: “Current Issues of Teaching Eastern Languages” Scientific-Practical Conference, pp. 337–348. (in Uzbek)
8. Zikriyayeva, X. (2025). Semantics of Arabic borrowings. Arabcha o'zlashmalar semantikasi. International Scientific Journal, 7(42), pp. 215–218. (in Uzbek)